

Ingliz Tili Darolarida Dialog Nutqini Rivojlantiruvchi Syujetli Rolli O`Yinlardan Foydalanish Texnologiyasini Takomillashtirish

Akbarova Ravzaxon Abdullaxayevna ¹

Anatatsiya: Ilm o`rganishda, ayniqsa til o`rganishda to`g`ridan-to`g`ri kitobdan o`rganish samarali usul hisoblanmaydi. Bunda turli didaktik, interfaol metodlar samarali hisoblanadi. Maqolada ingliz tili darolarida dialog nutqini rivojlantirish mexanizmlari ko`rib chiqiladi.

Kalit so`zlar: metod, didaktik usul, rolli o`yin, texnologiya, dialog.

KIRISH

Nutqiy ko`nikma va malakalarga oid bilimlarda o`quvchilarning til bilimi, nutqiy ko`nikma va malakani o`zlashtirishi nazarda tutiladi. Nutqiy vaziyatda til vositalarini erkin qo`llash, tasvirlash, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o`z fikrini bayon qilish (monolog), o`zgalar nutqini idrok etib tushunish (dialog), chet tildagi matn mazmunini payqay olish kabilarni bilish talab etiladi.

Kommunikativ kompetentsiya bo`yicha o`quvchilar quyidagi amaliy bilimlarga ega bo`lishlari kerak: til materialini nutqiy vaziyatda qo`llash; tayyorlangan va tayyorlanmagan yakkanutq va juftnutqda fikr yurita olish; o`qish turlari (tanishuv, o`rganuv, kuzatuv o`qish)ni egallash, asliyatdagi va adaptatsiya qilingan matnni o`qibaxborot olish kabilar.

ADABIYOTLAR SHARHI

Chet til o`qitish metodikasida og`zaki nutqni o`rgatishga doir bir talay ilmiy- tadqiqot ishlari olib borilgan (I.A. Zimnyaya, A.P. Lebedova, L.M. Sizova, E.I. Passov, V.I. Andriyanova, N.I. Jinkin, A.A. Leontev, T.V. Ryabova, A.A. Alxazishvili, S.A. Butyugina, B.YA. Lebedinskaya, O.I. Moskalskaya, G.M. Uayzer, A.D. Klimentenko, Z.M. TSvetkova va b.). Turli o`quv yurtlarida ingliz tilida og`zaki nutq(gapirish va tinglab tushunish)ga qo`yiladigan dasturiy talablar, uning tilshunoslik (lingvistik) va ruhshunoslik (psixologik) asoslari, juftnutq (dialog) va yakkanutq(monolog)ni o`rgatish, nutq faoliyatini reproduktiv hamda retseptiv egallashga doir masalalar tadqiq etilgan. Shuningdek, ingliz tili o`qitishning turli bosqich va tashkiliy qismlarida og`zaki nutqni o`rganishdan ko`zda tutilgan maqsad hamda vazifalar belgilab berilgan, og`zaki nutq malakalarini shakllantirish uchun tavsiya etilgan.

Gapirish nutq faoliyatining turi sifatida o`zining ijodiyligi bilan ajralib turadigan murakkab fikrlash jarayoni bo`lib, unda so`zlovchi o`z fikr va his-tuyg`ularini til hamda ekstralingvistik vositalar yordamida ifodalashga harakat qiladi. Psixolingvistikaga oid tadqiqotlarda gapirish uch tarkibli nutqiy faoliyat sanaladi. Dastavval, gapirishga moyillik, ichki turtki (motivatsiya) bo`lishi taqozo etiladi, ya`ni fikrni bayon etishga ehtiyoj tug`iladi. Fikrni ifodalash qismida esa analiz/sintez amallari ishga tushadi, gapiruvchi xotirasida tayyor turgan so`zlar(leksika)ni, grammatik birliklarni tanlaydi. Bu holatda, odatda, ona tili va ikkinchi til hodisalari o`rtasida o`xshashlik (transpozitsiya) hamda o`zaro farq qilish (interferentsiya) hodisalari ham kelib chiqadi. Gapirishning uchinchi qismi ijro, bayon etish, talaffuz qilish, tashqi nutqda uni ifodalashdir. Uchala qismning amalga oshirilishi gapirish faoliyatini yuzaga kelishiga turtki bo`ladi. (N.I. Jinkin, I.A. Zimnyaya) [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Nutqning ikki xil: dialogik va monologik turlari mavjud bo`lib, ularning har qaysisi o`z xususiyatiga ega. Dialogik nutq shakli (ikki yoki bir nasha kishining suhbat, savollar va javoblari) bu to`liq bo`lmagan qisqa javoblardir. Dialogik nutqning asosiy belgilari – to`liq bo`lmagan, undov so`zlardan iborat, aniq intonatsion manodorlik (ifodalash) imo – ishora va boshqalardir. Dialogik nutqda savol tuza olish va savol berish, eshitgan savoliga taalluqli javobni berish, kerakli etirozni bildirish, suhbatdoshining javobini tuzatish va to`ldirish, muhokama va munozara qilish, o`z fikrini asoslash va boshqalar juda muhimdir.

So`zlashuv (dialog) nutqi og`zaki nutqning ancha oddiy shakli bo`lib, u suhbatdoshlar tomonidan quvvatlanadi. So`zlashuvchilar turli vositalardan (ifodali vosita, ko`z qarashlar, imo-ishora, intonatsiya va hokazolar) foydalanib, bir-birlarini tushunadilar. So`zlovchilar uchun muhokama etiladigan predmet (buyum, narsa) ma`lum bo`ladi. Bu nutq shakli sintaktik tomondan ham juda oddiy: tugallanmagan gaplardan, xitob, undov so`zlardan foydalaniladi. U savol va javoblardan luqma tashlashdan va qisqa xabarlardan iborat bo`ladi. Ruhshunoslikda oddiy dialog (tayyorlanmagan) bilan suhbat o`rtasidagi farq aniqlangan. Suhbat o`ziga xos dialog bo`lib, ma`lum bir mavzu yo`nalishidan iborat bo`ladi.

¹ NamDU katta o`qituvchisi

Suhbatning maqsadi qandaydir savolni (mavzuni) muhokama qilishdir. Suhbatni olib borish uchun suhbatda ishtrok etuvchilar oldindan tayyorlanadilar, unda kengroq ma'lumotlar ko'proq bo'ladi.

O'quvchilar bilan so'zlashishni tashkil etishda o'qituvchi ham faol ishtrok etish lozim. O'qituvchi o'quvchini o'ziga qarata iltimos va murojaat qilishga, uni so'zlar, jumalalar bilan ifodalashga o'rgatib borish kerak.

O'quvchilarni so'zlashuv (dialogik) nutqini tarkib toptirishda maxsus mashg'ulotlarham olib boriladi. Bu mashg'ulotlar [4]:

1) suhbatlar 2) ta'limiy oyinlar 3) suratlarini ko'rib chiqish va u haqida suhbat.

Suhbat ta'lim-tarbiyaviy ishning murakkab turidir. Suhbat o'qituvchining sinfdagi hamma o'quvchilar bilan ma'lum bir mavzu yuzasidan maqsadga qaratilgan holda tashkiliy so'zlashishidir.

O'quvchilar bilan o'tkiziladigan suhbat ularning kundalik faoliyatlari va turli voqea hodisalarni kuzatishi natijasida olgan tushunchalarini aniqlash va ularni bir tizimga solish maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan suhbatni tashkil etar ekan, u o'quvchilarga haqiqatni to'liq va chuqur idrok qilishga yordam beradi, ularning diqqatini tushunish qiyin bo'lgan voqea-hodisalarga jalb qiladi. Suhbat o'quvchilarni jamoaga birlashtiradi, bir-birlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi, bilim va tasavvurlarini mustahkamlaydi, ularning nutqiga (lug'atini faollashtirishga, gramatik shakllarni takomillashtirishga) sezilarli darajada ta'sir etadi, o'qituvchining gaplarini, o'rtoqlarini berayotgan javoblarini e'tibor bilan eshitishga odatlanadilar. Suhbat o'quvchilarni o'z fikri bilan o'rtoqlashishga, jamoada so'zlashishga, faolligini oshirishga, o'z-o'zini tuta bilishga odatlantiradi, dunyoqarashini shakllantiradi. Suhbat uslubiyoti o'quvchilarda bilim, axloqiy sifatlarni tarkib toptirish bilangina cheklanmay, balki ularning bog'lanishli nutqini o'stirishda, tevarak-atrofdagi narsalarga qiziqishga, ularni aniq ko'rishga va ushbu narsalarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatishga muhim vosita hisoblanadi.

Suhbat o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlariga va xulqlariga katta ta'sir etadi.

Masalan oila, ota-onalar mehnati to'g'risidagi suhbatlaridan so'ng o'quvchilar o'zlarining yaqin kishilariga amaliy jihatdan o'z munosabatlarini namoyon etishga harakat qiladilar.

O'quvchilarga bilim va tarbiya berishda so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish katta ahamiyatga egadir. O'quvchida so'zlashuv nutqini shakllantirish – bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so'zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rashdir (savollar berish) [5]. O'quvchi so'zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi uning lug'at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog'liqdir. O'quvchining so'zlashuv nutqiga o'rgatish uning madaniy nutqni egallaganlik darajasiga ham bog'liqdir. Masalan, suhbatdosh bilan so'zlashayotgan vaqtda o'zining va suhbatdoshining nutqiga doimo e'tiborli bo'lish, suhbatdoshining nutqini also bo'lmaslik, savollarga odob bilan qo'l ko'tarib, ruhsat berilgach javob berish, "ha" yoki "yo'q" deb qisqa javob bermay, balki shoshmay, o'ylab, so'ng to'liq, to'g'ri javob qaytarishga odatlantirish lozim. So'zlashganda o'rtacha ovozda fikrni tushunarli qilib bayon etish, nutqning yoqimli bo'lishiga e'tibor berish, so'zlaganda hamma uni miriqib tinglashga o'rgatish, shuningdek, gapirayotgan vaqtda yerga, tevarak – atrofga qaramay, balki o'rtoqlariga qarab, ikki qo'lini yonga tushurib, erkin, samimiy so'zlashishga o'rgatishi va buni darsda o'quvchilardan talab qilib borish zarur.

Til o'rganishning asosiy shakli bu mashg'ulotdir. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida o'quvchi o'z nutqini o'qituvchining namunaviy nutqi bilan taqqoslashga, boshq o'quvchilar bilan o'quv materiallarini bajarishga, yani o'qituvchining tushuntirishini, hikoyasini tinglashga, birgalikda rasmlarni, diafilmlarni ko'rishga suhbatlashishga, didaktik o'yinlarda ishtirok etishga, birgalikda o'ynashga ma'lum bir obyektga diqqatini qarata olishga, navbat bilan gapirishga o'rganadi. O'quvchilar har darsda yangi bilimlar bilan tanishdilar, o'qituvchining nutqiy ko'rsatmasi orqali o'quv ishlarini bajarishga, o'z ishlariga baho berishga o'rganadilar.

O'quvchilar ishtirokida rolli-syujetli o'yinlarni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kerakli asos yaratiladi. O'quvchi-talabalar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak (ta'limning bu metodida rangli, lavhali suratlar, mavzuga oid 5-6 daqiqalik ekranlashtirilgan hujjatli filmlar namoyish etilib, qaltis vaziyatlarda «Shu holatda men nima qila olar edim?», «Nima qilmoq to'g'ri bo'lardi?» deb o'ziga savol beriladi).
3. Guruhlar belgilanadi. O'quvchi-talabalar guruh- larga 5-6 kishidan qilib bo'linadi. Aniq ko'rsatma, topshiriq bo'yicha ishga kirishiladi.
4. O'qituvchi har bir guruh faoliyatini qo'llab-quvvatlab, yo'naltirib turadi.
5. Dars yakuni muhokama qilinadi, o'quvchilar baholanadi, rag'batlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, mashg'ulot davomida suhbatlar, ta'limiy o'yinlar va rasmlardan foydalanib o'z fikrini bayon etish kabi o'g'zaki nutqni, ayniqsa, dialogik nutqni rivojlantirishga qaratilgan usullar yosh til o'rganuvchilarni dialogik nutq ko'nikmalarini rivojlantiribgina qolmay, tilni qiziqish bilan hamda erkin tarzda o'rganishlariga, ularning kommunikativ kompetentsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Саломов Ф. Таржима ташвишлари. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2013. – 192 б.

2. Сатторов Т.Қ. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси (инглиз тили материалида). –Т.:ТДЮИ, 2013. –192 б.
3. Теоретические основы методики обучения иностранным языкам в средней школе / Под ред. А.Д. Климентенко, А.А. Миролубова. –М.: Педагогика, 2011. – 456 с.
4. Фоломкина С.К. Обучение чтению на иностранном языке в неязыковом вузе. – М.: Высшая школа, 2017. – 207 с.
5. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе: Учебное пособие. –Л.: Просвещение, 2017. –295 с.
6. Щерба Л.В. Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики / Под ред. И.В. Рахманова. – 2-е изд. – М.: Высшая школа, 2014.– 112 с.